



UDK:330.1

Go'zal XUSAYINOVA,
Namangan davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, PhD
Shaxruzabonu MASALBEKOVA,
Namangan davlat pedagogika instituti magistranti
E-mail: xusayinovaguzal13@gmail.com

FDTU katta o'qituvchisi, PhD Sh.Numonjonov taqrizi asosida

AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARDA TEXNOLOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI (5-SINF MISOLIDA)

Аннотация

Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinf o'quvchilarida texnologik tafakkurni shakllantirish jarayoni akmeologik yondashuv asosida yoritilgan. Texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ijodiy faolligi va amaliy kompetensiyalarini yuqori bosqichga olib chiqishga xizmat qiluvchi metodlar asoslab berilgan. Akmeologik yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning texnologik tafakkur darajasini oshirishda samarali ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: Akmeologik yondashuv, texnologik tafakkur, texnologiya ta'limi, metodika, kompetensiya.

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ АКМЕОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА (НА ПРИМЕРЕ 5 КЛАССА)

Аннотация

В данной статье на основе акмеологического подхода раскрывается процесс формирования технологического мышления у учащихся 5-х классов общеобразовательных школ. Обоснованы методы, способствующие выводу личностного развития, творческой активности и практических компетенций учащихся на более высокий уровень при обучении предмету «Технология». Результаты исследования показали, что занятия, организованные на основе акмеологического подхода, являются эффективными в повышении уровня технологического мышления учащихся.

Ключевые слова: Акмеологический подход, технологическое мышление, технологическое образование, методика, компетенция.

METHODOLOGY FOR FORMING TECHNOLOGICAL THINKING IN STUDENTS BASED ON THE ACMEOLOGICAL APPROACH (USING THE 5TH GRADE AS AN EXAMPLE)

Annotation

This article examines the process of forming technological thinking in 5th-grade students of general secondary schools based on the acmeological approach. The study substantiates teaching methods that contribute to enhancing students' personal development, creative activity, and practical competencies in technology education. The results demonstrate that lessons organized according to the acmeological approach are effective in improving the level of students' technological thinking.

Key words: Acmeological approach, technological thinking, technology education, 5th grade, methodology, competence.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning faqat bilim olishigina emas, balki ularning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishi, ijodiy va texnologik tafakkurining shakllanishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarning amaliy faoliyatga tayyorligi, mustaqil qaror qabul qilish va muammoli vaziyatlarni hal eta olish ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Akmeologik yondashuv ta'lim jarayonida shaxsning eng yuqori rivojlanish nuqtasiga (akme) erishishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, u o'quvchining ichki imkoniyatlarini ochish, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z faoliyatini takomillashtirishga yo'naltiriladi. Ushbu yondashuvni 5-sinf texnologiya darslarida qo'llash o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos holda texnologik tafakkurni shakllantirish imkonini beradi. Yangi interaktiv texnologiyalar hayotning barcha jabhalarida muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Akmeologik yondashuv asosida o'quvchilarda texnologik tafakkurni shakllantirish – bu ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashning asosiy yo'nalishlaridan biri.

Texnologik tafakkur – bu muammolarni texnologik vositalar yordamida hal qilish, innovatsiyalarni yaratish va texnologiyalarni tanqidiy baholash qobiliyatini anglatadi [1].

Maktab yoshida, xususan 5-sinfda, bolalar tafakkuri shakllanish bosqichida bo'ladi, shuning uchun bu davrda texnologik ta'limni joriy etish samarali bo'ladi. O'zbekiston ta'lim tizimida texnologiya fani o'qitish metodikasi bo'yicha bir qancha ishlar mavjud bo'lib, ular o'quvchilarda mehnat malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Biroq, texnologik tafakkurni maxsus shakllantirish bo'yicha tadqiqotlar yetarli emas. Ushbu maqola 5-sinf o'quvchilariga qaratilgan holda, texnologik tafakkurni rivojlantirishning amaliy metodlarini o'rganadi. Tadqiqot maqsadi – interaktiv va loyihaviy yondashuvlarni qo'llash orqali o'quvchilar tafakkurini baholash va yaxshilash.

Ta'lim tizimida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, texnologiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarda texnologik tafakkurni shakllantirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Texnologik tafakkur - bu o'quvchining texnik jarayonlarni tushunishi, muammoni tahlil qilishi va amaliy yechim topa olish qobiliyatidir. 5-sinf o'quvchilari uchun texnologiya fani texnologik tafakkurni shakllantirishda boshlang'ich bosqich hisoblanadi. Shu sababli mazkur tadqiqotning maqsadi - 5-sinf o'quvchilarida texnologik tafakkurni rivojlantirishga xizmat

qiluvchi samarali metodikalarni aniqlash va ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini asoslashdan iborat.

Zamonaviy pedagogika fanida o'quvchilarning texnologik tafakkurini shakllantirish masalasi kompetensiyaviy yondashuv bilan chambarchas bog'liq holda o'rganilmoqda. Texnologik tafakkur o'quvchilarning texnik jarayonlarni tushunish, tahlil qilish va amaliy faoliyatda qo'llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu tushuncha pedagogika va psixologiya fanlarida turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilingan.

Tafakkur va uning rivojlanish mexanizmlari masalalari L.S. Vygotskiy, A.N. Leontev, S.L. Rubinshteyn kabi olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Ularning ta'kidlashicha, tafakkur faoliyat jarayonida, ayniqsa amaliy harakatlar bilan uyg'unlashganda samarali rivojlanadi. Bu g'oya texnologiya fanini o'qitishda amaliy mashg'ulotlarning muhimligini ilmiy jihatdan asoslaydi [2].

Texnologik ta'lim mazmuni va uni tashkil etish metodikasi bo'yicha tadqiqotlar N.M. Muslimov, R.H. Djuraev, B.X. Xodjajev kabi o'zbek olimlarining ishlarida o'z aksini topgan. Ularning tadqiqotlarida texnologiya fanining o'quvchilarda mehnat ko'nikmalari, texnik va texnologik fikrlashni rivojlantirishdagi roli asoslab berilgan. Xususan, N.M. Muslimov texnologiya darslarida o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirish va mustaqil fikrlashini ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi.

Akmeologik yondashuvning nazariy asoslari A.A. Derkach, A.A. Bodalev kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ularning tadqiqotlarida akmeologiya shaxsning kasbiy va shaxsiy rivojlanishida eng yuqori natijalarga erishish jarayonini o'rganuvchi fan sifatida izohlanadi. Akmeologik yondashuv ta'lim jarayonida o'quvchining ichki imkoniyatlarini ochish, o'z-o'zini rivojlantirish va refleksiv faoliyatini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan.

O'quvchilarda texnologik tafakkurni shakllantirishda yosh xususiyatlarini hisobga olish masalalari J. Piaget va D.B. Elkoninlarning yosh davrlari nazariyalarida yoritilgan. Ularning fikriga ko'ra, 5-sinf o'quvchilari ko'rgazmali-amaliy va mantiqiy fikrlashning shakllanish bosqichida bo'lib, bu davr texnologiya fanida muammoli vaziyatlar va loyihaviy faoliyatni qo'llash uchun qulay hisoblanadi.

Xorijiy tadqiqotlarda (J. Dewey, M. Prince) tajribaga asoslangan ta'lim va faoliyat orqali o'rganish texnologik tafakkurni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida baholanadi. Ushbu yondashuvlar akmeologik yondashuv bilan mazmunan uyg'un bo'lib, o'quvchining faol, mustaqil va ijodkor shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, texnologik tafakkurni shakllantirish masalasi ilmiy jihatdan yetarli darajada o'rganilgan bo'lsa-da, aynan 5-sinf o'quvchilari uchun akmeologik yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodikalar yetarlicha tizimlashtirilmagan. Shu bois mazkur tadqiqot ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, uning dolzarbligi bilan ajralib turadi [3].

Mazkur tadqiqotda akmeologik yondashuv asosida 5-sinf o'quvchilarida texnologik tafakkurni shakllantirish metodikasining samaradorligini aniqlash maqsadida nazariy va empirik tadqiqot metodlarining kompleksidan foydalanildi.

Nazariy tadqiqot metodlari-Tadqiqotning nazariy asoslarini ishlab chiqishda quyidagi metodlar qo'llanildi:

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish – akmeologik yondashuv, texnologik tafakkur va texnologiya ta'limi bo'yicha mavjud konsepsiyalarni o'rganish va tizimlashtirish;

Taqqoslash va umumlashtirish – turli olimlarning qarashlarini solishtirish orqali tadqiqot konsepsiyasini aniqlash;

Modellashtirish – 5-sinf o'quvchilarida texnologik tafakkurni shakllantirishning akmeologik modelini ishlab chiqish.

Empirik tadqiqot metodlari-Tadqiqot jarayonida amaliy ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish uchun quyidagi empirik metodlardan foydalanildi:

Pedagogik kuzatish – texnologiya darslarida o'quvchilarning faolligi, mustaqilligi va ijodiy yondashuvini aniqlash;

Suhbat va so'rovnomalar – o'quvchilarning texnologiya faniga bo'lgan qiziqishi va o'z-o'zini rivojlantirishga munosabatini o'rganish;

Diagnostik topshiriqlar – texnologik tafakkur darajasini aniqlashga qaratilgan test va amaliy vazifalar;

Pedagogik tajriba-sinov – ishlab chiqilgan metodikani amaliyotga joriy etish va uning samaradorligini baholash.

Pedagogik tajriba-sinovni tashkil etish metodlari-Tajriba-sinov ishlari quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

Aniqlovchi bosqich – o'quvchilarning texnologik tafakkur darajasini boshlang'ich diagnostika qilish;

Shakllantiruvchi bosqich – texnologiya darslarini akmeologik yondashuv asosida tashkil etish (muammoli vaziyatlar, loyihaviy faoliyat, refleksiya);

Nazorat bosqichi – olingan natijalarni tahlil qilish va taqqoslash.

Akmeologik yondashuvga asoslangan metodlar-Tadqiqotda quyidagi maxsus akmeologik metodlar qo'llanildi:

Refleksiv faoliyat metodi – o'quvchilarning o'z faoliyatini tahlil qilish va baholashini ta'minlash;

Loyihaviy metod – o'quvchilarning ijodiy va amaliy faoliyatini rivojlantirish;

Muammoli ta'lim metodi – texnologik muammolarni mustaqil hal qilish orqali tafakkurni rivojlantirish;

Individual yondashuv – har bir o'quvchining shaxsiy rivojlanish darajasini hisobga olish.

Natijalarni qayta ishlash metodlari-Tadqiqot natijalarini tahlil qilishda:

Sifat va miqdoriy tahlil;

Taqqoslama tahlil;

Statistik umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Ushbu metodlar majmui akmeologik yondashuv asosida texnologik tafakkurni shakllantirish jarayonini tizimli o'rganishga imkon beradi va 5-sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos metodikani ishlab chiqishni ta'minlaydi [4].

Natijalar va muhokama. O'quvchilarning texnologik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida konstruktorlik mashg'ulotlarining o'rni aniqlash, ularning samaradorligini ilmiy asosda tahlil qilish hamda bu jarayonni takomillashtirish bo'yichamethodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir. Kuzatishlar davomida o'quvchilarning konstruktorlik mashg'ulotlaridagi ishtiroki, fikrlash jarayoni va ijodiy yondashuvlari o'rganildi. So'rovnomalar orqali o'quvchilar va o'qituvchilarning fikrlari tahlil qilindi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, texnologiya fanini o'qitishda faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolish texnologik tafakkurni to'liq shakllantira olmaydi. Loyiha asosida ta'lim va amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, ularning texnologik tafakkurini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. 5-sinf o'quvchilari yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, sodda, tushunarli va qiziqarli topshiriqlardan foydalanish metodikaning samaradorligini oshiradi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning keyingi bosqichlarda texnik va kasbiy fanlarni o'zlashtirishiga zamin yaratadi. Interaktiv metodlar o'quvchilarning muammo hal qilish qobiliyatini 40% ga oshirgan, loyihaviy ishlar esa innovatsiya darajasini yaxshilagan. 5-sinf o'quvchilari orasida ekologik loyihalar eng samarali bo'lgan, chunki ular texnologiyalarni real hayot muammolari bilan bog'langan.

Tahlil natijalariga ko'ra, konstruktorlik mashg'ulotlarini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun quyidagi shart-sharoitlar muhim:

1. Mashg'ulotlarning mazmuni o'quvchilarning yosh va qiziqishlariga mos bo'lishi;
2. Texnik modellar, chizmalar va loyiha topshiriqlaridan tizimli foydalanish;
3. O'qituvchining rahbarlik va yo'naltiruvchi roli;
4. Mashg'ulotlarda muammoli va ijodiy yondashuvlarni uyg'unlashtirish;
5. Zamonaviy texnologik vositalar va o'quv-metodik ta'minotdan foydalanish.

Yakuniy natijalar shuni tasdiqlaydiki, konstruktorlik mashg'ulotlari o'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Ular o'quvchilarda amaliy faoliyatga nisbatan ijobiy munosabat, texnik tafakkur va ijodiy fikrlashni shakllantirish imkonini beradi. Shunday qilib, konstruktorlik mashg'ulotlarini ilmiy asoslangan metodika orqali tashkil etish o'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri ekanligi tadqiqot natijalari bilan isbotlandi. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarda texnik fikrlash, tahliliy yondashuv, ijodkorlik, amaliy muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot jarayonida aniqlanganki, konstruktorlik faoliyati orqali o'quvchilar texnik obyektlar tuzilishini tahlil qilishni, chizmalar bilan ishlashni, konstruksiya elementlarini bog'lash va funksional yechimlarni topishni o'rganadilar. Tajriba-sinov natijalari konstruktorlik mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etish o'quvchilarning faolligini oshirishini, mustaqil fikrlashni rag'batlantirishini, shuningdek, ularni amaliy faoliyatga yaqinlashtirishini isbotladi. Tajriba guruhi o'quvchilari texnik tafakkur darajasi, ijodkorlik va muammoli vaziyatlarda yechim topish ko'nikmalari bo'yicha nazorat guruhi o'quvchilariga nisbatan sezilarli yuqori natijalarga erishdilar [5].

Olingan natijalar pedagogika va psixologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar bilan uyg'unlashadi. Akmeologik yondashuv o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirib, uning ichki imkoniyatlarini ochishga xizmat qiladi. Texnologiya fanida ushbu yondashuv amaliy faoliyat, ijodkorlik va refleksiyaning uyg'unlashtirish orqali texnologik tafakkurni rivojlantirishga imkon beradi [6]. 5-sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, mazkur metodika ularning bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishi va amaliyotga tatbiq etishida muhim ahamiyat kasb etadi. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, texnologik tafakkurni shakllantirishda interaktiv va loyihaviy metodlar an'anaviy usullardan ustun. Bu O'zbekiston ta'lim tizimida texnologiya o'qitish metodikasiga mos keladi, chunki u o'quvchilarda kasbiy qiziqishni uyg'otadi. Biroq, cheklovlar mavjud: resurslarning yetishmasligi (kompyuterlar, internet) va o'qituvchilar tayyorgarligi. Kelajakdagi tadqiqotlar bu metodlarni boshqa sinflarda sinab ko'rishga qaratilishi kerak. Texnologik tafakkur rivoji o'quvchilarni zamonaviy jamiyatga tayyorlaydi, shuning uchun ta'limda

texnologiyalarni integratsiya qilish muhim. Ushbu yondashuvlar nafaqat texnologik, balki ekologik va ijodiy tafakkurni ham rivojlantiradi [7].

Xulosa. 5-sinf o'quvchilarida texnologik tafakkurni shakllantirishda loyiha asosida ta'lim, amaliy mashg'ulotlar va muammoli vaziyatlarga asoslangan metodikalar yuqori samaradorlikka ega. Ushbu metodikani ta'lim jarayoniga joriy etish o'quvchilarning ijodiy va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu asosda quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Konstruktorlik mashg'ulotlari texnik tafakkurni rivojlantirishda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, mantiqiy tahlilga, muammoli vaziyatlarda samarali yechim topishga o'rgatadi.

2. Texnologiya darslarida konstruktorlik faoliyatini ilmiy-metodik asosda tashkil etish o'quv jarayonining sifatini oshiradi, o'quvchilarning texnik madaniyati va ijodkorligini rivojlantiradi.

3. Tajriba-sinov natijalari konstruktorlik mashg'ulotlarining o'quvchilarning qiziqishi, motivatsiyasi va amaliy faoliyatga bo'lgan ishtiyogini oshirishda samarali ekanligini tasdiqlaydi.

4. Texnik tafakkurni rivojlantirishning samaradorligi o'qituvchining metodik tayyorgarligi, mashg'ulotlar mazmunining zamonaviy texnik talablar bilan uyg'unligi va amaliy mashqlar tizimli tashkil etilishiga bevosita bog'liqdir.

Mazkur natijalarga asoslanib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Umumta'lim maktablarining texnologiya darslarida konstruktorlik mashg'ulotlarini muntazam yo'lga qo'yish, ularni o'quv dasturining ajralmas qismi sifatida kiritish zarur.

2. O'qituvchilar uchun konstruktorlik mashg'ulotlarini samarali tashkil etish bo'yicha metodik qo'llanmalar va amaliy mashg'ulotlar to'plamini ishlab chiqish lozim.

3. O'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda zamonaviy texnik vositalar — 3D modellashtirish dasturlari, virtual laboratoriyalar, STEM texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

4. Texnologiya fan o'qituvchilarining malakasini oshirish tizimida konstruktorlik faoliyati, loyiha asosida o'qitish va texnik tafakkurni rivojlantirish metodlariga alohida e'tibor qaratish kerak.

5. O'quvchilarda ijodkorlik, muhandislik fikrlashi va texnik tafakkurni erta bosqichdan shakllantirish maqsadida maktabda "Texnik ijodkorlik to'garaklari" va "Yosh konstruktorlar" klublarini tashkil etish tavsiya etiladi [8].

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, konstruktorlik mashg'ulotlari nafaqat o'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirish, balki ularni hayotiy muammolarga amaliy yechim topishga o'rgatish, mustaqil fikrlashni shakllantirish va kasbiy yo'naltirishd ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, texnologiya ta'limi jarayonida konstruktorlik mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida keng joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Omonov H., To'raqulov Sh. Texnologiya ta'limida o'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirish usullari. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
2. Ahmedov A. Texnologiya ta'limi nazariyasi va metodikasi. –Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018.
3. Xusayinova, G. Z. (2025). Akmeologik yondashuv asosida pedagogika fanini transformatsiya qilishda innovatsion texnologiyalarning o'rni. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 3(12).
4. Hasanov R., Qodirova N. Konstruktorlik mashg'ulotlarining o'quv jarayonidagi o'rni. // Pedagogik ta'lim jurnali, No3, 2020.
5. Xodjayev N. Texnik ijodkorlik asoslari. –Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 2017.
6. G'ulomov A., Musurmonova O. Texnologiya fani o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. –Toshkent: TDPU, 2020.
7. Shoraxmetov Sh. Kasb-hunar ta'limida texnik tafakkurni rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari. –Toshkent: Fan, 2019.
8. Abdurasulovna, X. G. Z. (2025). Texnologiya fani mashg'ulotlarda akmeologik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash. shokh library, 1(10).